



## OLIY TA'LIM MUASSASIDA TALABALARGA INDIVIDUAL TARBIYANING AHAMIYATI

*Abdiraimova Zulkumor G'ofur qizi*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti Matematika va  
kompyuter injiniringi kafedrasida o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lismuassasalarida talabalarning individual tarbiyasini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri mustaqil ta'linda so'z boradi. Maqola mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil tarbiya olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalarni misol tariqasida yoritib beradi. Shuningdek bu dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi hamda tarbiya berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil tarbiyaning ahalyatiga uslubiy yondashiladi.

**Kalit so'zlar:** Motivatsiya, individual ta'lism, milliy vatanparvarlik, tarbiya texnologiyasi, madaniyat.

### KIRISH

Mamlakatimiz aholisining munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida talim tarbiya olishi hamda kasb egallashi, jamiyatda o'zlarining munosib fuqarolik pozitsiyasini egallashi va bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish va uni bajarish tarbiya samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'lidir. O'qituvchining tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi – ijodiy jarayon. O'qituvchi tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosan «Ta'lism to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalariga tayanadi. Uning mazmunini o'quvchilarni o'qishga, ilmga ijobiy munosabatni tarbiyalash egallashi kerak. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, individual tarbiyani yanada rivojlantirish asosiy raqobatni tashkil qiladi. Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzlusiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlari bor. Garchi zamonaviy ta'lism texnologiyasi o'quvchining ta'lism jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqyeyini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy hamda tarkibiy jihatdan ta'lism texnologiyasidan farq qiladi. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatni tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqarilgan reja va modellarni



ro‘yobga chiqarish, bu rejalarini amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloqini boshqarish kabilalar hisoblanadi.

O‘z vatanining fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarini amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:

1. milliy vatanparvarlik, o‘z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg‘usi;
2. millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.
3. Shaxsning ma’naviyatini shakllantirish.

Ma’naviyat — kishining ichki dunyosi bo‘lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma’naviyat darajasi — bu, ma’lum ma’noda, insoniylik mezonidir. Ma’naviyatni shakllantirish — bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

4. Individuallik tabiat tuhfasi bo‘lib, uni rivojlantirish zarur. Modomiki, inson jamiyatda yashar ekan, u jamiyatdagi axloq va huquq mezonlarini, ijtimoiy fikrlarni hurmat qilishi lozim. Mehnatning aksariyat ko‘rinishlari uchun jamoa harakati zarur bo‘ladi.
5. Shu tufayli jamoaviylik ruhida tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Ayni chog‘da individual tarbiya nihoyatda muhimdir, chunki bunga dastlab yetarlicha e’tibor berilmagan edi, hozir esa buni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar talab etmoqda.

Tarbiya tamoyillari — bu umumiylar qoida bo‘lib, unda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga bo‘lgan asosiy talablar aks etgan.

Tarbiya tamoyillari tarbiyachilar uchun tayyor, har narsaga yaraydigan qoida emas, chunki uni qo‘llash bilan yuqori natijalarga erishib qolinmaydi.

Ilg‘or o‘qituvchilar tarbiyani ijtimoiy institut sifatida tushunganlar. Turli davlarda yo ijtimoiy, yo davlat, yoki shaxsiy yo‘nalish kasb etib, uning mazmun tamoyillari o‘zgargan. Mazkur tamoyil o‘qituvchining barcha faoliyati tarbiyaning davlat strategiyasiga mos holda o‘sib kelayotgan avlodni tarbiya vazifalariga bo‘ysundirishni talab qiladi va tarbiyachilar faoliyatini shaxsni ijtimoiylashtirishga yo‘naltiradi. Bu tamoyillarni amalga oshirishning asosiy qoidalari tarbiyaviy (mehnat, ijtimoiy, o‘yin va b.) faoliyat jarayonida o‘quvchilarda faoliyatning ijtimoiy qimmat va muhim sababga molik, ijtimoiylashtirish suratini tezlashtirishni tashkillashtirish zaruriyati bilan bog‘langan. Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi.

Tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish kerakki, tarbiyalanuvchilar o‘z mehnatlarining kishilar jamiyati uchun zarurligini, ularga manfaat keltirishini sezsinlar. Tarbiyada ijobiy jihatlarga tayanish. Tarbiyada foydali ishga tayanish kishidagi ijobiy hislatlarni va shu asosda yetarlicha shakllanmagan yoki salbiy shakllangan sifatlarni zarur daraja va uyg‘unlikda aniqlashni ko‘zda tutadi. Tamoyilni amalga oshirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. tarbiya tizimida adovat, tarbiyalanuvchining kurashi, kuch va jarayonlarini qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas;
2. ijobiy natijalar tarbiyalanuvchi taqdirida tarbiyalovchining
3. hamkorlik, toqat va manfaat ko‘rvuchi sifatida ishtirok etish imkoniyatini beradi;
4. tarbiyalanuvchining axloqida yuzaga kelgan kamchiliklarga diqqatni qaratmaslik, ijobiyalarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash zarur;
5. o‘quv yurtida ijobiy tarbiyaviy muhit, ruhiy-psixologik iqlimni yuzaga keltirish, saranjom-sarishtalik, tozalikni saqlash zarur;
6. tarbiyalanuvchilarni yuqori natijalarga erishish imkoniyati mavjudligiga ishonch hosil qilish.

Tarbiyani insonparvarlashtirish. Bu tamoyilga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;
- uning huquqi va erkinligini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchiga kuchi etadigan va oqilona shakllantirilgan talablarni qo‘yish;
- tarbiyalanuvchining holatini, hatto u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda ham tushunish;
- kishining o‘zi bilan o‘zi bo‘lish huquqini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;
- talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- shaxsning or-nomus va qadr-qimmatini kansituvchi jazoga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma'lum sabablar bilan shaxsning haqligiga zid keluvchi sifatlarning shakllanishini uning tomonidan to‘liq rad etilish huquqini tan olish.

Vatanparvarlik — o‘z vataniga, xalqiga sadoqat va mehr-muhabbatdir. Kishining tug‘ilib o‘sgan joyiga bog‘liqlik, ona tiliga bo‘lgan hurmat, vatan manfaatlariga sodiqlik va g‘amxo‘rlik, uning erkin va mustaqilligini himoyalash; ijtimoiy va madaniy yutuqlaridan faxrlanish; tarixiy o‘tmish va axloqiy an‘analarga hurmat munosabati; o‘zining mehnati, kuchi va qobiliyatini vatan ravnaqiga bag‘ishlash hissi vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi.

Xalqaro munosabatlar madaniyati turli xalqlarning xalqaro iqtisodiy, ma’naviy axloqlari, turli millat vakillarining o‘zaro hurmat qilishlari, muayyan axloqiy xushmuomalalikni saqlashning, boshqa xalqlarning tili, odatlari va an‘analarini mensimaslikka yo‘l qo‘ymaslikda ko‘rinadi, bu munosabatlarning yuqori darajadagi takomilashadi.

### Xulosa

Xulosa o`rnida shunu aytish kerakki har bir inson individual tarbiyani amalga oshira olmas ekan u davlatda o’sish ham yuksalish ham bo’lmaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, O`zbekistonda ta`lim sohasida keng imkoniyatlar ochildi, vatanimizning xalqaro soxadagi muvaffaqiyati va o`rni milliy



o`zligimizni anglashda, chizmachilik fanlari etakchi mavqe kasb etib, har bir fuqoroning mamlakat taqdiri uchun mas`ullik hissini yanada oshi-rishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan, ta`lim sahosidagi tub islohatlarga etibor kuchaytirilmoqda. Chunki kelajak avlodni, bilimli, har tamonlama yetuk shaxs qilib tayyorlashda pedagog o`qituvchilar oldiga katta mas`uliyat yuklamoqda. Shu bilan birga fan texnika taraqiyoti natijasida muxandislik fanlariga bo`lgan talab oshib bormoqda. Inson uchun zarur bilimlar miqiyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklanib bo`lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. - T: 2005.
2. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

